

Jizzax vohasi hunarmandchilik na`munalarida qardosh xalqlar madaniyatining aks etishi

Dildora Tursunova
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Yurtimizning tarixi va madaniyati asrlar davomida taraqqiy etib borgan. Har bir voxa o‘zining hunarmandchilik turlariga ega. Hunarmandchilikni rivojlanishida qardosh xalqlar madaniyati, ularning hunarmandchilik turlaridagi faoliyati ham ta`sir etib kelmoqda. Jizzax vohasida ham tarixan tarkib tipgan hunar turlari mavjud. Mazkur hunar turlarining rivojida hududda istiqomat qilib kelayotgan qardosh millat vakillarining ham samarali mehnati bor.

Абстрактный: История и культура нашей страны развивались на протяжении веков. В каждом оазисе есть свои ремесла. Культура соседних народов и их ремесленная деятельность оказали влияние на развитие ремесел. В Джизакском оазисе также существуют исторически сложившиеся виды ремесел. В развитии этих видов ремесел результативную работу ведут и представители братских народов, проживающих в регионе.

Abstract: The history and culture of our country has been developing for centuries. Each oasis has its own crafts. The culture of the neighboring nations and their activities in handicrafts have been influencing the development of handicrafts. In Jizzakh oasis, there are also types of crafts that have historically been formed. In the development of these types of crafts, the representatives of the fraternal nations living in the region also have an effective work.

Kalit so‘zlar: Qardosh xalqlar, hunarmandchilik, hunar turlari, madaniyat, hunarmandchilikni rivojlantirish.

Ключевые слова: Развитие братских народов, ремесел, видов ремесел, культуры, ремесел.

Keywords: Development of brotherly peoples, crafts, types of crafts, culture, handicrafts.

Jizzax viloyati mamlakatimizning markazi mintaqasida – sharqdan g’arbgaga, janubdan shimolga yo’l olgan tarixiy-savdo yo’lining chorrahasida joylashgan, ona

Vatanimiz hududidan sharqqa yoki g’arbga yo’l olgan karvonlar, elchilar, qo’shinlar ayni shu manzillardan o’tgan.

Ma’lumki, o’zbeklar turkiy xalqlar tarkibiga kiruvchi tili, dini va qadriyatlarini bir-biriga yaqin bo’lgan qardosh xalqlar bilan tarixan bir hududda shakllanib, rivojlanib kelgan. Sharqdan Xitoy va g’arbda Yevropagacha cho‘zilgan hududlarda joylashgan turkiy tilli xalqlarning bugungi kungacha o’zaro bog‘liq holda rivojlanishi va taraqqiy etishida ularning o’zaro birdamligi, tili va e’tiqodiga hurmat, ijtimoiy-iqtisodiy hamkorligi hamda madaniy aloqalarning mustahkamligi sabab bo‘lmoqda, deyish mumkin.

O’zbekistonda bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat vakillaridan iborat aholi istiqomat qiladi. Respublika davlat ta’lim muassasalarida o‘qitish o’zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman tillarida olib boriladi. O’zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi o‘ndan ortiq tilda eshittirishlar, mahalliy bosma ommaviy axborot vositalari esa 14 tilda chop etilmoqda. Respublikada 138 ta milliy madaniy markaz va 34 ta do‘stlik jamiyatlari faoliyat yuritmoqda.

O’zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarini respublika ijtimoiy, ma’naviy ma’rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta’minalash milliy-madaniy markazlar faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do‘stlik, hamkorlik, madaniy-ma’rifiy aloqalar o‘rnatish va hamdo‘stlik aloqalarini rivojlantirishdir.

Jizzax viloyatida ko‘plab millat vakillari tinch-totuv, bahamjihat umrguzaronlik qilmoqdalar. Viloyatda 6 ta (qirg‘iz, tojik, qozoq, rus, tatar va koreys) Milliy-madaniy markazlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, jahon hamjamiyati bilan do‘stona aloqalarni kuchaytirish maqsadida “O’zbekiston bag‘rikeng diyor” nomi ostida konsert, qardosh xalqlar yozuvchi, shoir va rassomlarining badiiy asarlari ko‘rgazmalari, turli millatlar vakillari ishtirokidagi sport tadbirlarini o‘tkazish an’anaga aylangan.

Viloyatida qirg‘iz millatiga mansub 50 ming nafardan oshiq aholi yashaydi. Baxmal, Zomin, Zarbdor, Do‘stlik tumanlarida 14 ta to‘liq qirg‘iz tilida va 2 ta aralash tilda o‘qitiladigan maktablar, maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Asrlar davomida qon-qardosh, quda-anda bo‘lib yashagan qo’shi xalqlar o‘rtasida azaliy bordi keldi tiklanib, o’zaro hamkorlik kuchayishi xalqaro maydonda davlatimiz nufuzining yanada oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Qirg‘iziston Respublikasidan bir guruh mehmonlar yurtimizga kelib, qirg‘iz, o‘zbek va boshqa millatlar do‘sst-qardosh bo‘lib yashayotgan Do‘sstlik tumanining Manas mahallasida bo‘ldi. Ular mahallada aholi turmush farovonligini mustahkamlash yo‘lida amalga oshirilgan ishlar, yaratilgan sharoit va ijtimoiy soha ob’ektlari faoliyati, mahallada yashayotgan o‘zbek, qirg‘iz va boshqa qardosh xalqlarning o‘zaro do’stona munosabatlari, aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar bilan yaqindan tanishdi.

Jizzax shahridagi “Do‘sstlik uyi”da milliy madaniy markazlarga yaratilgan sharoitlar o‘z ifodasini topgan. “Do‘sstlik uyi” binosida tatar, qozoq, koreys, rus, tojik va qirg‘iz milliy madaniy markazlari faoliyat olib borish uchun yetarli darajada sharoitlar yaratilga e`tibor berilmoqda.

Viloyatda istiqomat qilib kelayotgan qirg‘iz, qozoq, tojik millati vakillari orasida hunarmandchilik bilan shug`ullanib kelayotgan xotin-qizlarning ham faoliyati rivojlanib bormoqda. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan hunarmandchilik na`munalarida tarixan tarkib topgan qardosh xalqlar madaniyati aks ettirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Jizzax tarixi. <http://tarixchi.zn.uz/jizzaxim-faxrim/jizzax-tarixi/>
2. https://uza.uz/oz/posts/jizzax-viloyati-xabarlari-qisqa-satrlarda_546967
3. Jizzax viloyatidagi milliy madaniy markazlar.
<https://interkomitet.uz/news/1128>

Research Science and Innovation House